

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No2
MAXSUS SON

2026

MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINING
MAQOLALARI
TO‘PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 72 sahifa,
mart, 2026-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI | 8 |
| <i>Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich</i> | |
| O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING TARMOQ TAHLILI..... | 12 |
| <i>Go'zal Samadova Solik qizi, Husan Normurodov</i> | |
| SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH | 17 |
| <i>Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich, Aytmuratova Ulbige</i> | |
| O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SEKTORINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI | 21 |
| <i>Abduxalilov S.A., Normurodov X.E.</i> | |
| ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ..... | 27 |
| <i>Абдумажидов Шохжахон Шухратович, Захидов Шухрат Шокирович, Насиров Дилшод Фархадович</i> | |
| СТЕЙБЛКОИНЫ КАК ФАКТОР ТРАНСФОРМАЦИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО ПОСРЕДНИЧЕСТВА | 31 |
| <i>Бахтиярова А.Б., Алиева С.С.</i> | |
| TASHKILOT AXBOROT TIZIMLARINI KVANT TAHDIDLARIDAN HIMOYALASHDA POST-KVANT KRIPTOGRAFIK ALGORITMLARNI QO'LLASH..... | 38 |
| <i>G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi, Tursunova Sadoqat Abdusalom qizi</i> | |
| CHORVACHILIKDA QIYMAT ZANJIRI: BARQARORLIK VA DAROMAD | 44 |
| <i>Saidov Muhammadali Hakimovich, Mahmatov Hoshim, Esanbekov Diyorbek</i> | |
| KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA BERILAYOTGAN SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI | 50 |
| <i>Sarsengalieva Albina Askar Qizi, Sarsenbaev Baxitjan Abdulgazievich</i> | |
| STATISTIK TAHLILDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH | 56 |
| <i>Rizayeva Bahroy Jahongir qizi, Daminova Barno Esanovna</i> | |
| QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTINING YASHIL RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI | 62 |
| <i>Dexkanova Shodiyona Kaxramon qizi, Normurodov X.E.</i> | |
| O'ZBEKISTON TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI | 66 |
| <i>Abdurazakova Farangis Dilshod qizi, Normurodov X.E.</i> | |



O'ZBEKISTON TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Abdurazakova Farangis Dilshod qizi

O'zMU. Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabasi.

Normurodov X.E.

O'zMU katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada turizm infratuzilmasining mohiyati va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilingan. Turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari hamda ularning o'zaro bog'liqligi yoritib berilgan. O'zbekistonda so'nggi yillarda mehmonxonalar soni, investitsiyalar hajmi va raqamlashtirish darajasidagi o'sish statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatib o'tilgan. Turizm infratuzilmasi va sayyohlar oqimi o'rtasidagi korrelyatsiya asoslab berilgan. Shuningdek, hududiy nomutanosiblik, raqamli infratuzilma va logistika muammolari tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida infratuzilmani takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: turizm infratuzilmasi, iqtisodiy o'sish, YaIM, investitsiyalar, xorijiy turistlar oqimi, raqamli infratuzilma, mehmonxonalar, transport, raqamlashtirish.

Abstract: This article analyzes the essence of tourism infrastructure and its role in economic development. The structural components of tourism infrastructure and their interrelations are examined. Based on statistical data, the growth in the number of hotels, investment volume, and the level of digitalization in Uzbekistan in recent years is demonstrated. The correlation between tourism infrastructure development and tourist flows is substantiated. Additionally, issues such as regional disparities, digital infrastructure, and logistics challenges are analyzed. The study concludes with scientific findings and practical recommendations for improving tourism infrastructure.

Keywords: Tourism infrastructure, economic growth, GDP, investments, foreign tourist inflow, digital infrastructure, hotels, transport, digitalization.

Аннотация: В данной статье проанализирована сущность туристической инфраструктуры и её роль в экономическом развитии. Освещены структурные компоненты туристической инфраструктуры и их взаимосвязь. На основе статистических данных показан рост числа гостиниц, объёма инвестиций и уровня цифровизации в Узбекистане за последние годы. Обоснована корреляция между развитием туристической инфраструктуры и потоком туристов. Также проанализированы проблемы региональной диспропорции, цифровой инфраструктуры и логистики. В завершение исследования разработаны научные выводы и практические рекомендации по совершенствованию туристической инфраструктуры.

Ключевые слова: Туристическая инфраструктура, экономический рост, ВВП, инвестиции, поток иностранных туристов, цифровая инфраструктура, гостиницы, транспорт, цифровизация.

KIRISH

Turizm infratuzilmasi — bu sayyohlarning ehtiyojlarini qondirish, ularga qulaylik yaratish va xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan barcha ob'ektlar, tizimlar va xizmatlarning majmuasidir. Turizm infratuzilmasi juda keng qamrovli tizim bo'lib, u nafaqat binolar, balki xizmat ko'rsatish sifatini ham o'z ichiga oladi. Uning tarkibini tushunishni osonlashtirish uchun uni uchta asosiy blokga ajratishimiz mumkin. Bular ishlab chiqarish (texnik) infratuzilmasi, ijtimoiy-madaniy infratuzilma, institutsional va xizmat ko'rsatish infratuzilmasi. Bugungi globallashuv davrida turizm dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlangan sohalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Bilamizki, turizm nafaqat qadimiy inshootlar, diqqatga sazovor joylar va muzeylar bilan, balki infratuzilmasi



bilan ham insonni jalb qiladi. Turizm infratuzilmasining dolzarbligi shundaki, u mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdek turizm infratuzilmasini rivojlantirish bilan bir qatorda ko'proq turistlarni e'tiborini jalb qilish mumkin. Bu haqida O'zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 18-iyulda qabul qilingan Prezident Farmoni' № 102 deb nomlangan qaroridan ham bilib olishimiz mumkin. Bu qarorga binoan "Keyingi besh yil ichida biz xorijiy turistlar sonini ikki barobar oshirishni maqsad qilganmiz. Shu maqsadda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi" deb so'z yuritadi. [1]

Bundan tashqari to'g'ridan-to'g'ri YaIM(yalpi ichki maxsulot)ga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tabiiyki ko'p davlatlar mamlakat ichidagi pul aylanishiga qaraganda tashqaridan mablag'kelishiga ko'proq e'tibor berishadi. Ya'ni turizm ham shu kabi tashqi dunyodan mablag'kirishiga yo'naltirilgan. Jahon miqyosida hisoblaganda 2024-yilda sayyohlik va turizm sektori global YaIMning taxminan 10 % ini tashkil etdi, bu 10,9 trillion AQSh dollar bo'lib, iqtisodiyotning muhim drayveri ekanini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 2023-ga nisbatan sezilarli o'sishni bildiradi — sektorda kuchli tiklanish mavjud.[2] Bu statistik ko'rsatkich shuni anglatadiki, turizm infratuzilmasiga investitsiyalar nafaqat sayyohlar sonini oshiradi, balki umumiy iqtisodiy faoliyat hajmini ham kengaytiradi. Ish o'rinlari bo'yicha ham qarasaq turizm sektori 357 milliondan ortiq ish o'rnini qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni dunyo bo'yicha har 10 ish o'rinidan uchtasi bu soha bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq.[3] Bu ma'lumot shuni ko'rsatadiki, infratuzilma rivojlanishi ishchi kuchiga talabni oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va yerli mehnat bozorini qo'llab-quvvatlaydi — bu ayniqsa rivojlangan davlatlarda barqaror bandlik uchun juda muhim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm infratuzilmani rivojlantirish masalalari jahon mamlakatlari iqtisodiyotida ham keng qamrovli mavzulardan biri bo'lib, bir qancha iqtisodchi olimlar tomonidan mulohaza va tadqiqotlarga uchragan.

M.Porter Harvard universiteti professori o'z tadqiqotlarida turizm sohasidagi raqobatbardoshlik faqatgina tabiiy resurslar yoki tarixiy obidalarga bog'liq emasligi ta'kidlagan. Bu ko'proq ushbu resurslarni sayyoh uchun qanchalik qulay va sifatli infratuzilma (transport, aloqa, servis) orqali taqdim eta olish mahoratiga bog'liqligiga e'tibor qaratgan. Infratuzilma — bu strategik farqlanishni yaratuvchi asosiy omildir deb biladi.[4]

Grekiya iqtisodchisi N.Dritsakis turizm infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning asosi hisoblanishini tadqiq etgan. Transport va aloqa tarmoqlarining rivojlanishi nafaqat sayyohlar oqimini oshiradi, balki mamlakatning umumiy yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'sishiga bevosita turtki berishini ham asoslagan.[5]

Yaqin xorij olimlari V.A.Kvartalnov Rossiya va MDH ning yetakchi turizmshunos olimi turizm infratuzilmasini shunday ta'riflaydi: Turizm infratuzilmasi — bu shunchaki moddiy baza emas, balki mehmondo'stlik sanoatining qon tomiridir. Agar transport logistikasi va joylashtirish vositalari o'zaro muvofiq ishlamasa, hududning barcha tabiiy va madaniy salohiyati o'z qiymatini yo'qotadi.[6]

Belorus iqtisodchisi va turizm eksperti G.A. Yakovlev infratuzilmani shakllantirishda ustuvorlik servis sifatiga berilishi kerakligini va hatto eng chiroyli tarixiy obida ham, agar uning atrofida zamonaviy muhandislik va axborot infratuzilmasi bo'lmasa, iqtisodiy jihatdan "o'lik aktiv" bo'lib qolaverishini aytib o'tgan.[7]

O'zbekistonda sayyohlik infratuzilmasini kuchaytirish va uning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash borasida qator iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan:

Iqtisodiyot fanlar doktori I.S. Tuxliyev mintaqaviy turizm infratuzilmasini shakllantirishda "klasterli yondashuv" eng ustivor yondashuv deb hisoblagan. Yurtimizda nafaqat mehmonxona, balki turistning qadamjayidan to aeroportgacha bo'lgan barcha nuqtalarda servis uzluksizligini (Smart-infratuzilmani) ta'minlanishiga e'tibor qaratgan. [8]

Yana bir iqtisodchi professor M.T. Alimova hududiy turizm salohiyatini infratuzilma orqali oshirish masalalarini tadqiq etgan. U ta'kidlashicha, turizm infratuzilmasini diversifikatsiya qilish — bu chekka hududlarni ham iqtisodiy jarayonga jalb qilishni anglatadi. Shuningdek, raqamli infratuzilma (E-tourism) bugungi kunda yo'l va binolardan kam bo'lmagan strategik ahamiyatga ega ekanligini qayd etgan.[9]

Xalqaro va hududiy iqtisodiy adabiyotlarda tibbiy turistik infratuzilma tizimi keng ko'lamda o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida bu haqidagi bir qancha iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarini o'rganishda bir qancha kamchiliklar mavjud. Shu boisdan mazkur muammo ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib, yanada chuqurroq tahlilni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, kuzatuv, yaqqoslash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-7031233>

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekiston respublikasining turizm infratuzilmasini rivojlanganligini anglash uchun so'ngi yillardagi o'zgarishlarga e'tibor qaratishimiz darkor. 2019-yilgacha O'zbekiston turizm bozorida asosan yirik mehmonxonalar ustuvorlik qilgan bo'lsa, so'nggi 5 yilda kichik va o'rta biznes vakillari uchun yaratilgan imtiyozlar natijasida Oilaviy mehmon uylari va Hostellar soni keskin oshdi.[10] Natijada dastlabki yilda mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari soni 1100 ta atrofida bo'lgan bo'lsa, 2024-yil boshiga kelib bu ko'rsatkich 2 500 tadan oshdi.[11] Ayniqsa, Samarqanddagi «Silk Road Samarkand» kabi yirik turistik klasterlarning tashkil etilishi O'zbekistonning yuqori toifali (5 yulduzli) mehmonxonalar segmentidagi salohiyatini 30% ga oshirdi.[12] Statistikalarga nazar solgandan keyin shuni ayta olamizki, bozor iqtisodiyotiga asoslarga davlatni rivojlantirish va xususiy sektorga ko'proq e'tibor berish orqali barcha soha jumladan turizm ham ko'p o'zgarishlar bo'ldi. 5 yil ichida mehmonxonalar sonida 2 barobardan oshgan o'sishni kuzatishimiz mumkin. Shunga o'xshash xizmat ko'rsatish sohaslariga masalan, restoranlar, hunarmandchilik va ichki transportga qilingan har bir dollarlik investitsiya qo'shimcha 2,5 – 3 dollar daromad olib kelyapti.[13]

O'zbekiston turizm infratuzilmasini o'sishining daromadlarga ta'sirini ko'rib chiqqan xolda jadval tuzildi. Quyidagi jadval mehmonxona o'rinlari, tadbirkorlik subyektlari, transport va raqamlashtirish kabi bir qancha sohalarni ko'rsatkichlari va ularni necha foizga ortgani. 2019- 2024-yillar oralig'ida bo'lgan statistika tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval. Turizm tizimining infratuzilmaviy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari (2019 va 2024-yillar) [14]

| Ko'rsatkichlar | 2019-yil | 2024-yil | O'zgarish (%) |
|--|----------|----------|---------------|
| Mehmonxona o'rinlari soni (ming birlikda) | 64.0 | 120.0+ | +87% |
| Turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlari | 4200 | 11500 | +173% |
| Transport bog'liqligi indeksi | O'rtacha | Yuqori | +45% |
| Raqamlashtirish darajasi (QR-kod, onlayn bron) | 15% | 75% | +500% |

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yilda eng yuqori o'sish sur'ati raqamlashtirish darajasi (500%) va tadbirkorlik subyektlari sonida (173%) kuzatilgan. Bu esa sohaning nafaqat davlat, balki xususiy sektor tomonidan ham faol qo'llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi. Transport bo'liqligi indeksi pastligi, unga bo'lgan investitsiya va e'tibor kamligini bildiradi. Ammo har bir sohada o'sish kuzatilganligi uchun turizm yildan yilga o'sayotganligini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Infratuzilma va oqim korrelyatsiyasi[15]



So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasi iqtisodiyotning strategik drayverlaridan biriga aylandi. Rasmda keltirilgan tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, sohada investitsiya faolligi va sayyohlar oqimi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. 2018-yilda turizm infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2,1 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich qariyb uch baravarga oshib, 5,8 trln so'mga yetdi. 2024-yil yakuni bo'yicha esa ushbu raqamning 7,1 trln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu o'sish davlat tomonidan sohadagi tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan e'tibor va yaratilgan qulay investitsiya muhitidan dalolat beradi. Xorijiy turistlar soni 2019-yilda o'zining eng yuqori ko'rsatkichlaridan biriga (6,7 mln kishi) chiqqan edi. Biroq, 2020-yilgi global pandemiya natijasida keskin pasayish kuzatilib, turistlar oqimi 1,5 mln kishiga, investitsiyalar esa 1,8 trln so'mga tushib ketdi. 2021-yildan boshlangan tiklanish jarayoni natijasida 2024-yilda xorijiy sayyohlar soni rekord darajaga — 7,5 milliondan oshishi kutilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston turizm bozori konseptual o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Sohadagi ijobiy dinamikaga qaramay, o'tkazilgan tahlillar bir qator fundamental kamchiliklarni ko'rsatyapti. Dastlabki mumammo infratuzilmaviy nomutanosiblikdir. Turizm infratuzilmasining asosiy qismi Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi yirik shaharlarda jamlangan. Chekka hududlardagi rekreatsion resurslarga olib boruvchi yo'llarning sifati, elektr va suv ta'minoti tizimlari hamon talab darajasida emas, bu esa turistik oqimni hududlar bo'ylab teng taqsimlashga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli sayyohlar yurtimizda kam muddat bo'yapti va bu albatta ishsizlik va pul tushumini kamaytirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Keyingisi esa aqamli infratuzilma (axborot uzilishi). Tarixiy va tog'li ob'ektlarda yuqori tezlikdagi Wi-Fi va 4G/5G aloqa qamrovining pastligi "aqlli turizm" (Smart Tourism) konsepsiyasini to'liq joriy etishga xalaqit bermoqda. Bilamizki mamlakatimiz nafaqat diqqatga sazovor joylari, balki iqlimi va tabiati bilan ham insonni o'ziga rom etadi. Internet sababli shu kabi tabiatdan bahramand bo'lish qoldirilishi mumkin. Oxirgisi bu logistikadagi muammolar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek aeroport yoki vokzaldan yakuniy manzilgacha bo'lgan transport logistikasi va taksi xizmatlari tartibga solinmagani sayyohlarning xarajatlarini asossiz oshishiga sabab bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, transport bog'liqligi indeksining (IATA) nisbatan pastligi (o'rtacha darajadan yuqoriga o'tish bosqichida) ushbu sohaga bo'lgan investitsiyalarning hali ham yetarli emasligini bildiradi. Shunga qaramay, har bir ko'rsatkichda kuzatilayotgan ijobiy siljish O'zbekiston turizm bozorining jozibadorligini oshirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda so'nggi yillarda turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi tomonidan ko'plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, turizm infratuzilmasida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Yuqoridagi tahlil natijalaridan ayrim sohalarda imkoniyatlar cheklanganligi ta'kidlandi. Shu bois, turizm infratuzilmasini mustahkamlash, kadrlar salohiyatini rivojlantirish, xizmatlar sifati oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida hududiy dasturlarni kengaytirish, xususi sektor ishtirokini rag'batlantirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib quyidagilar ta'kidlandi:

1. Mehmonxona va joylashtirish o'rinlari: Ayrim viloyatlarda infratuzilma rivojlanmagan, mehmonxonalar soni kam, qishloq turizmi uchun infratuzilma sust va xizmatlar sifati xalqaro standartlarga har doim ham mos emas.

2. Axborot navigatsiya tizimidagi kamchiliklar: Bir qancha xorijiy tillardagi ko'rsatkichlar yetarli emas va onlayn ma'lumotlar bazasi to'liq va tizimli shakllanmagan. Bu xorijiy turistlar uchun mustaqil sayohatni qiyinlashtiradi.

3. Xizmat ko'rsatish madaniyati va kadrlar masalasi: Malakali gid va turizm mutaxassislari yetishmaydi, xorijiy tillarni bilish darajasi past va servis sifati hududlar kesimida bir xil emas.

Taklif etiladigan yechim va chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

1. Chekka viloyatlarda kichik mehmonxonalar, oilaviy uylar tashkil etish uchun soliq yoki subsidiyalar mexanizmlarini joriy qilish, mehmonxonalarga sertifikat tizimini kuchaytirish yoki mehmonxonalar sifati baholash uchun milliy platforma yaratish. Davlat-xususi sheriklik asosida infratuzilmasi sust hududlarda zamonaviy joylashtirish obyektlarini qurish.

2. Turistik obyektlarda xorijiy tillarda ko'rsatkichlar o'rnatish, barcha turistik obyektlar, transport, mehmonxona va xizmatlar haqida ma'lumot beruvchi yangi mobil ilova ishlab chiqish, chekka hududlarda internet qamrovini kengaytirish orqali turistlar uchun qulay muhit yaratish.

3. Gidlar va servis xodimlari uchun bepul yoki subsidiyalangan til kurslarini tashkil qilish, gid va turizm mutaxassislarini majburiy malaka attestatsiyasidan o'tkazish. Monitoring tizimini hududlar bo'yicha yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, infratuzilmani rivojlantirish tizimi O'zbekiston turizm tizimining moliyaviy va ijtimoiy jihatdan barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bu esa nafaqat ishchi o'rinlar balki YaIM uchun ham katta hissa qo'shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. President Shavkat Mirziyoyev nutqi. www.president.uz
2. <https://www.worldbank.org/en/topic/competitiveness/brief/tourism-and-competitiveness>
3. <https://www.worldbank.org/en/topic/competitiveness/brief/tourism-and-competitiveness>
4. "The Competitive Advantage of Nations"
5. "Tourism as a long-run economic growth factor", 2004
6. "Turizm: nazariya va amaliyot", Moskva
7. "Ekonomika i organizatsiya turizma"
8. "Turizm iqtisodiyoti va menejmenti", 2021
9. "Mintaqaviy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari", 2017
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-avgustdagi PQ-5249-sonli qarori hamda Turizm qo'mitasining hisobotlari
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining "O'zbekiston raqamlarda" yillik to'plami
12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi maqsadli ko'rsatkichlari
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI). Turizm sohasidagi multiplikativ effektlar va infratuzilmaviy o'zgarishlar tahlili. – Toshkent: 2024. – 32 b.
14. Muallif ishlanmasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining "Xizmatlar sohasi statistikasi" tahliliy ma'lumotlari. Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi (IATA) hamda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi hisobotlari. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasining "Smart Tourism" konsepsiyasi doirasidagi hisobotlari.
15. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlar tahlili (2018-2024 yillar). – Toshkent: 2024. – 45 b va Turizm qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari. [Elektron resurs]. URL: www.uzbektourism.uz

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100